

QIZIL SUVO'TLAR BO'LIMI TAVSIFI, VAKILLARINING TUZILISHI, SISTEMATIKASI, TARQALISHI VA AHAMIYATI

Raxmonalaiyeva Gullola Odiljon qizi

Andijon Davlat Pedagogika Instituti

Aniq va Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yo'nalishi

1-bosqich 101-guruh talabasi

gullolaraxmonaliye@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15165399>

Annatotsiya: Bu maqolada Qizil va Yashil suvo'tlari bo'limlarining qiyosiy tasnifi keltirilgan. Jumladan, tuzulishi, taraqalishi va sistematikasiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Qizil suvo'tlar, Yashil suvo'tlar, tuzulishi, tarqalishi, sistematikasi, xlorofill, sinflar.

Аннотация: В данной статье представлена сравнительная классификация отделов красных и зелёных водорослей. Включая информацию о его структуре, распространении и систематике.

Ключевые слова: Красные водоросли, Зелёные водоросли, распространение, строение, систематика, хоронили, классы.

Annotation: This article presents a comparative classification of the divisions Red and Green Algae. Including information on its structure, distribution, and systematics.

Key words: Red algae, Green algae, distribution, structure, systematics, chlorophyll, classes:

Qizil suvo'tlarning 600 turkumga mansub 3750 turi bor. Bu suvo'tlar asosan dengizlarda o'sadi. Qazilma formalari bo'r davrda topilgan. Tallomi – bir va ko'p hujayrali. Vegetative tanasi – ipsimon, shoxlangan butacha va plastinka shaklida bo'lib, barg, poya, ildiz singari differensiallashgan. Hujayrasi – protoplazma, bitta yoki bir necha yadro va ko'plab donachasimon va lentasimon xromatoforlarga ega. Hujayra po'sti – selluloza va pektindan iborat. Sitoplazma – ancha quyuvlashgan, hujayra devori bo'ylab joylashgan. Pigmenti – xlorofill a, b, karotin, ksantofil, lyutein, fikoeritrin va qisman fikatsianin pigmentlari uchraydi. Zaxira oziq moddasi – yog' va glikogenga yaqin bo'lgan polisaxaridlarning maxsus guruhidan iborat.

Bu bo'limga kiruvchi suvo'tlar 2 xil usul bilan ko'payadi. Masalan :

1. jinsiz ko'payishi – sporangiyda bitta yalang'och hujayra – monospora yoki to'rttadan – tetraspora hosil qilish yo'li bilan boradi.

2. jinsiy ko'payishi oogamiya usuli bilan boradi.

Qizil suvo'tlar bo'limi 2ta sinfga bo'linadi:

1. **Bangiyasimonlar (Bangiophyceae)** sinfi.

2. **Floridasimonlar (Floridophyceae)** sinfi.

Bangiyasimonlar sinfi vakillarining hujayrasidagi xromatoforlari yulduzsimon, pirenoidga ega. Hujayralar orasida poralar bo'lmaydi. Kaprogonda trixogena yo'q jinsiz ko'payish monosporalar yordamida boradi. Bu sinfnining eng ko'p uchraydigan turlaridan biri bu – porfira (porphyra) dir. Uning tallomi bargsimon, to'q qizil rangda, substratga birikkan, uzunligi 50 sm, ba'zi turlariniki 2 metr ga boradi.

Floridiasimonlar sinfi vakillari hujayrasida xromatoforalar parietal, pirenoidsiz tuzilgan. Hujayralar orasida poralar bor. Karpogon trixoginaga ega. Jinsiz ko'payishi

tetraspora orqali amalga oshadi. Bu sinf 3 ta tartibga bo'linadi. 1. Nematolionlilar tartibi (Nemallionales) 2. Kriptonemalar (Crytonemiales) tartibi 3. Seremililar tartibi. Nematolionlilar tartibining ko'p uchraydigan vakillariga Lemanea hisoblanadi. Bu asosan tez oqadigan suvlarda bo'ladi. Tallomi pushti rang, shoxlangan, uzunligi 10 – 15 sm, substratga yopishgan holda o'sadi. Nematolion turi esa tallomi pushti, qizili rangda bo'ladi. Shilimshiq, soda tuzilgan, uzunligi 10-20 smga yetadi. Substratga yopishgan holda Janubiy dengizlarda o'sadi. Kriptonemalar tartibining ko'p uchraydiga turiga dyurenani misol qilishimiz mumkin. Dyurenea (dudresnaya) tallomi pushti rangli shoxlangan butacha shaklda. Tallomi tuzilishi bo'yicha batraxospermunga o'xshash bo'ladi. Seremililar bu tartib vakili – delesseriya och qizil rangda boladi. Tallomi butacha shaklda shoxlangan. Shimoliy dengizlarning chuqur joylarida uchraydi.

XULOSA. Qizil suvo'tlar dengizda yashaganligi sababli mercan riflarini shakllantirishda muhim ro'l o'ynaydi. Ba'zilar substrat sifatida boshqa suvo'tlar yoki gastrapodalar kabi hayvonlarning chig'anoqlarini olishni rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. Botanika: Tuban o'simliklar.(Sh.J.Tojiboyev. N.M.Naraliyeva). "Namangan" nashriyoti-2016
2. Tuban o'simliklar(L.L.Velikanov va boshqalar)"O'qituvchi" nashriyoti .Toshkent-1995
3. Botanika: Morfologiya,Anatomiya,Sistematika,Geobotanika.(O'.P.Pratov) "Ta'lim nashriyoti" Toshkent-2010
4. Botanika: Yuksak o'simliklar sistematikasi. (Sh.J. Tojiboyev. N.H. Qarshiboyeva) "Namangan" nashriyoti-2015